

NEWS ABOUT ACCOUNTING AND AUDITING IN UZBEKISTAN

Dilovarxujayeva Mexrinigor Isroiljon qizi

Graduate Student of the Fergana Industrial and Service Technical College,
Accounting and Auditing Department.

G'oziyeva Zulxumorxon Ravshan qizi

Graduate Student of the Fergana Industrial and Service Technical College,
Accounting and Auditing.

Annotation: Article presents the essence of banks, their origins and their place in the market economy, and general concepts about it.

Key words: Modernization, investors, infrastructure, negative impact, investment practices.

O'zbekistonda Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi boyicha bo'layotkan yangiliklar.

Dilovarxujayeva Mehrinigor Isroiljon qizi Farg'ona sanoat va xizmat ko'rsatish texnikumi Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi bitiruvchi bosqich talabasi.

Zulxumor G'oziyeva Ravshan qizi Farg'ona sanoat va xizmat ko'rsatish texnikumi Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi bitiruvchi bosqich talabasi.

Annatatsiya: Mazkur maqola, Banklarning mohiyati, kelib chiqish asoslari va ularni bozor iqtisodiyotidagi o'rni va u haqida umumiy tushunchalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Modernizatsiya qilish, investorlar, infratuzilma, salbiy ta'siri, investitsion amaliyotlar.

Kirish: Bank deb, pul mablag'larini yig'uvchi, saqlab beruvchi, kredit-xisob va boshqa vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytiladi.

Banklar paydo bo'lishining asosi bo'lib tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi xisoblanadi. Tovar-pul munosabatlarining bo'lishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda banklarning ham bo'lishini taqazo etadi. Banklar o'rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat, shaxar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o'z bo'sh turgan mablag'laridan foyda olish maqsadida ularni vaqtincha foydalanishga mablag' zarur bo'lgan subyektlarga berishgan. Bu hol pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan.

Bank so'zi italyancha «banka» so'zidan olingan bo'lib, «stol», «pullik stol» degan ma'noni anglatadi, chunki o'rta asrlarda italiyalik puldorlar hamyonlaridagi, idishlaridagi tangalarni stol ustiga qo'yib xisob-kitob qilganlar.

Asosiy qism: Bozor munosabatlari sharoitida banklar iqtisodiyotni samarali boshqarishning muhim subyekti hisoblanadi. Banklar bozor munosabatining boshqa subyektlaridan farq qilib pul bilan ishlovchi, vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini yig'uvchi, uni unga ehtiyoj sezgan subyektlarga vaqtincha foydalanishga berib turuvchi va pul mablag'larini samarali

ishlatish asosida o'z faoliyatini olib boruvchi muassasa hisoblanadi. Banklar bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni xarakatga keltiruvchi subyekt hisoblanib moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va olib borishda vositachi sifatida kapital aylanishining uzluksizligini ta'minlab jamiyatning ravnaq topishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga, jamiyat a'zolari farovonligiga zamin yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-pul munosabatlarining keng miqyosda rivojlanishi banklar oldida yangidan-yangi operatsiyalar bajarishga imkoniyat ochib beradi. Shuning uchun ham respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimi yaratish zaruriyati tug'ildi. O'zbekiston Respublikasi «Bank siri to'g'risia»gi qonunning 3-moddasiga binoan quyidagilar bank siri hisoblanadi:

- o'z mijozlarining (vakillarining) operatsiyalari, hisob varaqlari, va omonatlariga doir ma'lumotlar
- bank o'z mijoziga (vakiliga) bank xizmatlari ko'rsatishi munosabati bilan mazkur mijoz (vakil) to'g'risida olgan ma'lumotlar
- mijozning (vakilning) bank seyflari va binolarida saqlab turilgan mol-mulki, uning xususiyati va qiymati haqidagi ma'lumotlar
- mijoz (vakil) topshirigiga binoan yoki uning foydasini ko'zlab amalga oshirilgan banklararo operatsiyalar va bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar
- bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning banklar o'rtasida muomilada bo'lishi natijasida ma'lum bo'lib qolgan boshqa bankning mijoziga (vakiliga) doir ma'lumotlar.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar mijozning (vakilning) o'ziga, u vakolat bergan vakillarga, shuningdek hisob palatasiga (uni zimmasidagi vazifaga kirs), tergov, prokuratura va surushturuv organlariga (tergovchi va surushtiruvchining asoslangan qaroriga kura ko'zatilgan jinoyat ishi mavjud bo'lganda) taqdim etiladi.

Bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari:

Xozirgi vaqtda jahonda umum qabul qilingan bank tizimi ikki pog'onali bank tizimi bo'lib u markaziy bank va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga oladi.

Bank tizimini bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib qayta tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslangan holda olib boriladi:

- Xorijiy va mahalliy investorlarning ishonchini qozonish maqsadida bank-moliya tizimi barqarorligiga erishish
- bank tizimidagi islohatlar umumiy iqtisodiy islohatlarning o'tkazilishi bilan mos kelishi
- bank-moliya tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish yo'li bilan jahon banki tizimiga yaqinlashtirish
- pul-kredit siyosatini olib borishda mamlakatning ichki ehtiyojini va uning iqtisodining xususiyatini hisobga olish
- banklar faoliyatida mijozlar manfaatini ustun quyish va boshqalar.

Bugungi kunda bank tizimi Respublikamiz iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri bo'lib, sohadagi aktivlar, kapital darajasi, kredit qo'yilmalari va investitsion amaliyotlar hajmi kabi asosiy ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari buni yaqqol tasdiqlamoqda. Mamlakatimizda bank-moliya tizimini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilashga, shuningdek tijorat banklarining iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lishiga hamda ularning yirik investitsiya institutlariga aylanishiga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan bank-moliya tizimining samarali faoliyatiga bog'liqdir. O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan izchil va maqsadli islohotlar uning nafaqat jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta'siri va oqibatlaridan ishonchli tarzda himoyalaniishiga, balki banklar faoliyatida muhim va sifat o'zgarishlarga erishish, iqtisodiyotning real sektorini kreditlash hajmini kengaytirish hamda bank va moliya xizmatlarini ko'rsatish darajasini tubdan yaxshilash imkonini berdi. Mamlakatimiz bank tizimining barqaror va ishonchli faoliyat yuritishi, uning jahon moliya bozoridagi nufuzi ortib borishi, shuningdek mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lidagi dadil qadamlarimiz dunyo jamoatchiligi, shuningdek, qator nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan e'tirof etilmoqda. Ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda real sektorni kreditlashda pasayish tendentsiyasi davom etayotgan bir payitda, mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar xajmi yildan-yilga oshib bormoqda. 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra real sektorga yo'naltirilgan kreditlar xajmi 26,5 trln. so'mni tashkil etdi. Ajratilgan kreditlarning 79,3 foizini investitsion maqsadlarga yo'naltirilgan uzoq muddatli kreditlar tashkil qilgan.

2013 yilgi kredit siyosati doirasida ustuvor sohalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun 7,2 trln. so'm miqdorida investitsion kreditlar ajratildi. Oxirgi 13 yilda ajratilgan investitsiya kreditlari hajmi 60 barobardan ortiqqa ko'paydi. Bu esa O'zbekiston bank tizimi mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga muhim hissa qo'shayotganligidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda yurtboshimiz rahnamoligida mamlakatimizda aholi faravonligini oshirish va turmush darajasini yanada yaxshilash, xususan, qishloq aholi punktlari qiyofasini tubdan o'zgartirish, namunaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarni ro'yobga chiqarishda tijorat banklarining faol ishtiroki ta'minlanmoqda.

Xususan, oxirgi 5 yil davomida respublikamizning 159 ta qishloq tumanida namunaviy loyihalar asosida 900 dan ortiq yangi uy-joy massivlari barpo etildi, umumiy maydoni 4 million 500 ming kvadrat metr bo'lgan 33 ming 500 dan ziyod yakka tartibdagi uy-joy foydalanishga topshirildi.

Diqqatga sazovor jihat shundaki, bir necha yillardan buyon xalqaro «Mudis» reyting agentligi tomonidan MDH davlatlari ichida faqat O'zbekiston bank tizimiga «Barqaror» reyting bahosi

berilmoqda. Bu esa o'z navbatida butun iqtisodiyotimizga berilayotgan baho bilan chambarchas bog'liqdir.

2011 yil natijalariga ko'ra, «Mudis», «Fitch Reytings» va «Standart end Purs» kabi xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan ijobiy reytingiga, O'zbekiston tijorat banklarining 13 tasi ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib respublikada faoliyat ko'rsatayotgan barcha tijorat banklari ijobiy bahoga sazovor bo'lishdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, muhtaram Yurtboshimiz tomonidan mamlakatimiz bank tizimini rivojlantirishga berilayotgan alohida e'tibor va respublikamizda qulay makroiqtisodiy shart-sharoitlar yaratilganligining natijasida bank tizimini rivojlantirish va isloh etib borish sohasida sezilari ijobiy natijalarga erishildi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ahmad, M. Abu-Alkheil (2012) "Ethical Banking and Finance: A Theoretical and Empirical Framework for the Cross-Country and Inter-bank Analysis of Efficiency, Productivity, and Financial Performance" Ltd. Germany
2. Bekkin R.I., 2009, Islamic economic model and modernity. Marjani Publishers, Moscow
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. Toshkent "Sharq" 2012 5-bet
4. Mufti Taqi Usmoniy. Al-Azhar Fatwa declaring interest permissible.www.albalagh.net/qa/azhar_fatwa_interest.html.
5. Azmat, S., Skully, M., Brown, K., 2015. Can Islamic banking ever become Islamic?
6. Citibank annual report 2018, Citi Research, Reuters, SNL Research
7. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7 -fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
8. Chapra M.U What is Islamic Economics?-Jeddah 2001, p-33
9. E.A.Baydaulet, X. Xasanov "Islomiy moliya asoslari" O'zbekiston 2019, 401-bet
10. www.cbu.uz
11. www.aims.com
12. www.islom.uz
13. <https://www.worldometers.info>